



Received: November 30, 2021
Accepted: December 23, 2021
Available online: December 25, 2021

Ra'no Zaripova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston

Ra'no Zaripova

Independent researcher, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ranobonu51@mail.ru

“HAYOT NAVOSI” ROMANI TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI

ANNOTATSIYA

Maqolada ukrain yozuvchisi Oles Goncharning bir-biriga uzviy bog'liq novellalardan iborat romani “Hayot navosi” (“Tronka”) asarining o'zbek tiliga tarjimasida tadqiq etilgan. Muallif ushbu asar tarjimasiga bog'liq holda nasriy asar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham fikrlarini bayon qiladi.

Oles Gonchar ukrain adabiyotining yirik va mashhur yozuvchilaridan. Uning “Hayot navosi” romani o'z davrida eng go'zal asarlardan biri deb baholangan. Ushbu asarni o'zbek tiliga tarjimon Lola Tojiyeva o'g'irgan. Asar ona yurtga, insoniyatga mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan haya-jon va ehtiros bilan yozilgan. Muallif bir-biriga uyg'un novellalar orqali o'z yurtiga, eliga bo'lgan muhabbatni, go'zal va ezgu tuyg'ularini, diltortar ohanglarda ifodalagan. Tarjimada ham yurtga muhabbat ohangi, jo'shqin tuyg'ular mohirona o'girilgan mazmun va shakl uyg'unligi, ya'ni asliyat uslublari tarjimada ham o'z maqomini yo'qotmagan.

Muallif roman matnini o'g'irishdagi murakkabliklar, maqol va iboralar tarjimasida, milliy qadriyatlarga daxldor jumlar, majoziy obrazlarni o'g'irish, sifatlash va o'xshatishlarning tarjimada berilishi, harakat, qiyofa tasvirini qayta ifodalashda tarjimon uslubi kabi masalalarni maxsus tahlil qilgan. O. Gonchar ijobiy obrazlarni ularning tashqi go'zalligi va ruhiy olami bilan uyg'unlashtirib tasvirlaydi va tarjimon ham muallifning ushbu uslubini saqlab qolganki, bunga maqolada alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotchi o'zbek adibi Asqad Muxtorning

APPLICATION OF TRANSLATION SKILLS WHILE TRANSLATING THE NOVEL “KHAYOT NAVOSI”

ANNOTATION

The article deals with the Uzbek translation of the novel “Tronka” (1963) (“Khayot Navosi”), written by Ukrainian writer Oles Gonchar. The researcher also comments on the specifics of the fiction prose translation on the example of this particular novel translation.

Oles Gonchar is one of the great and famous writers of Ukrainian literature. His novel “Tronka” (“Khayot Navosi”) is considered to be one of the most beautiful works of his time. This work was translated into Uzbek by Lola Tajieva. The work is written with enthusiasm and passion for the Motherland and humanity. The author expresses his love for his country and his people, presenting his beautiful and noble soul feelings in the tones harmonious to his short stories. The translation also masterfully conveys the feelings of love for the motherland, passionate feelings highlighting the harmony of a form and content, that is, the original style has not been lost in the course of translation.

The author analyzes the difficulties of translating not only the text of the novel, but also proverbs and sayings, sentences related to national values, figurative images, adjectives and analogues, translating of retrospection and re-expressing some actions and images. O. Gonchar depicts positive images in harmony with their external beauty and spiritual world, and the translator has kept this style of the author. The article is dedicated to this.

The researcher notes that the story of the

qissalardan iborat “Chinor” romanining ham ushbu adabiy-badiiy uslubda yozilganligi, el-yurtga, mehnat kishilariga uning ulugʻvor muhabbati baland pafos bilan ifodalanganligini taʼkidlaydi. Bu qiyos tarjima asarlarning xalqlar oʻrtasidagi koʻpriki ekanligini taʼkidlaydi.

Kalit soʻzlar: talqin, tarjima, tarjimon, uslub, zamon, qadriyat, maqol, majoziy obraz, xatti-harakat.

Uzbek writer Asad Mukhtor “Chinor” was written in this literary and artistic style, and his glorious love for the people, especially working people is expressed with high pathos. The comparative analysis of the two translations emphasize that these two works may serve as a bridge between peoples.

Key words: interpretation, translation, translator, style, time, meaning, proverb, figurative image, behavior.

KIRISH

Adabiyot va zamon. Yangi Oʻzbekiston – yangi islohotlar davrida adabiyot va sanʼatga eʼtibor yanada kuchaydi. 2017-yil 3-avgustda boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maʼruzasida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday deb taʼkidlagan edi: “Inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuygʻusini betakror soʻz, ohang va ranglarda tarannum etishni oʻz hayotining maʼno-mazmuni deb biladigan, siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, masʼuliyatli va sharaflil ekanini barchamiz yaxshi bilamiz [Mirziyoyev Sh., 2018; 176].

Chingiz Aytmatovning “Tanlangan asarlar” kitobiga yozilgan soʻzboshida esa yurtboshimiz adabiy aloqalar xalqlar doʻstligiga munosib hissa qoʻshishini taʼkidlaydi: “Biz mutafakkir adib Chingiz Aytmatovning “Tarixda Vizantiya slavyan xalqlari oʻrtasida madaniyat tarqatishda qanday rol oʻynagan boʻlsa, oʻzbeklar ham Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan shunday rol oʻynagan” degan yuksak eʼtirofini hamisha minnatdorlik bilan eslaymiz [Mirziyoyev Sh., 2018; 410].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat maxzani” kitobiga yozilgan soʻzboshida “Ikki xalq oʻrtasidagi oʻzaro hamjihatlikni yanada mustahkamlashda adabiy aloqalarning oʻrni va ahamiyati beqiyos ekanini biz yaxshi anglaymiz. Adabiy doʻstlik – abadiy doʻstlikning eng yorqin namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz [Mirziyoyev Sh., 2018; 339].

Yurtboshimiz taʼkidlaganidek, adabiy aloqalar xalqlarning tinchligi va omonligi, kelajagi va ravnaqi, ahil va doʻst boʻlib yashashiga koʻmaklashuvchi, ziddiyat va qarama-qarshiliklardan asrash yoʻlida hamisha kuchli targʻibot-tashviqot ekanligi bor haqiqatdir.

Oles Goncharning ukrain adabiyotidagi oʻrni. Oles Gonchar (Aleksandr Terentevich Gonchar) ukrain adabiyotining yirik va mashhur yozuvchisi, publitsisti va jamoat arbobi. U koʻplab roman, qissa va hikoyalarning muallifidir. Aleksandr Gonchar Ukrainaning Paltava gubernasida 1918-yilning uchinchi aprelida oddiy ishchi oilasida tugʻildi. Bolaligida, yaʼni uch yoshida ota-onasini yoʻqotdi. Ona tomondan bobosi va buvisi tarbiyasida voyaga yetdi. Adib yetmish yetti yoshida Kiyevda 1995-yili oʻn toʻrtinchi iyulda vafot etdi [Gonchar O., 1975; 7-282].

Ukrain adibi oʻzidan katta adabiy meros qoldirdi. Oles Gonchar “Inson va qurol” – (Chelovek i orujie) asari uchun Ukrainaning Taras Shevchenko nomidagi

Milliy mukofotiga munosib ko‘rilgan. “Hayot navosi” – (Tronka), “Твоя зоря”, “Bayrokdorlar – (“Znamenossi”) romanlari uchun sobiq sovetlar mamlakatining yuksak mukkofotlariga sazovor bo‘lgan.

Ko‘plab asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. O‘zbek kitobxonlari uning asari bilan birinchi marta “Bayrokdorlar – “Znamenossi” roman-trilogiyasi orqali 1951-yili o‘z tilida tanishdilar. Ushbu uch jildlik asarni H.Axmerov va O.Rahimiy hamkorlikda tarjima qilganlar.

Oles Goncharning “Povest va hikoyalar” to‘plami o‘zbek tilida 1960-yili chop etilgan va uni tarjimonlar – A.Karimov, M.Rustamov o‘zbekchallashtirgan. To‘plamda “Chiroqlar so‘nmasin” povesti va to‘qqizta hikoya jamlangan. “Janub”, “Qo‘shnilar”, “Shu‘la”, “Abadiy soldatlar”, “Kungaboqar”, “Yo‘lda”, “To‘rg‘ay” kabi hikoyalar shular jumlasidandir.

Oles Goncharning 1963-yili chop etilgan “Hayot navosi” (“Tronka”) novella-romani sobiq sho‘rolar adabiyotidagi eng go‘zal asarlardan biri deb baholangan va yozuvchi ushbu asari uchun davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan [Gonchar O., 1972; 320].

“Hayot navosi” bir-biriga bog‘liq bo‘lgan novellalardan iborat romandir. Unda Janubiy Ukraina manzaralari shoirona tasvirlangan va turli kasb egasi bo‘lgan uch avlod kishilarining mardonavor hayoti va faoliyati ifodalangan. Bu asarda uchuvchilar, harbiylar, dengizchilar, cho‘ponlar, irrigatorlar, sovxoz ishchilarining sevimli obrazlari yaratilgan [<https://www.livelib.ru>].

O‘zbek kitobxonlari uni Lola Tojiyeva tarjimasi asosida o‘z tillarida o‘qishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘zbek adibi Asqad Muxtorning qissalardan iborat “Chinor” (1969-yili yozilgan) romani mazmun-mohiyati va yozilish uslubi jihatdan Oles Goncharning 1963-yili chop etilgan “Hayot navosi” (“Tronka”) novella-romaniga o‘xshab ketadi. “Tronka” asari turfa kasbda faoliyat olib boruvchi turli xil fe‘lga ega bo‘lgan bitta qishloq kishilari haqidagi roman bo‘lsa, “Chinor” asari ham katta va zahmatkash o‘zbek oilasi haqidagi asardir. Bu oilaning har bir a‘zosi jamiyatda muayyan mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan insonlardir. Oila boshi Ochil buva safari bilan shartli ravishda o‘zaro bog‘langan qissalarning har biri mustaqil ahloqiy-estetik qarashlarni oldinga suradi. Hikmatlar va rivoyatlar esa bu fikrlarni quvvatlab, yanada mustahkamlaydi [Asqad Muxtor, 2020; 432].

Bu dalil esa adiblar bir-biridan o‘rganishi zarur ekanligini va shu yo‘l bilan milliy adabiyot kuchayib jahon adabiyotidan munosib o‘rin olishini ko‘rsatadi.

O‘zbek tarjimachiligi ham katta yo‘lni bosib o‘tdi. Mumtoz adabiyotimizda arab, fors tillaridan turkiyga va aksincha, turkiydan arab va fors tillariga o‘girish yetakchilik qilgan bo‘lsa, avvalgi asrda rus adabiyotidan ko‘plab adib va shoirlarning asarlari o‘zbekchallashtirildi. Hatto, Yevropa tillari – ingliz, nemis, ispan kabi tillardan o‘girilgan asarlar ham o‘zbek adabiyotiga rus tili orqali kirib keldi. Bu an‘ana tarjimon Lola Tojiyeva ijodiga ham xos xususiyatdir.

Tarjimon Lola Tojiyeva asarni rus tilidan o‘giran. Tahlillarda asliyat deb rus tilidagi variatini olamiz.

ASOSIY QISM

Nasr tarjimachiligining o'ziga xos xususiyatlari. Tarjimonning matnga yondashuvi va tarjima prinsiplari aynan tarjimaning mohiyatini belgilab beruvchi faktorlardir. Zamonaviy tarjima adabiyotida asosiy e'tibor ma'no-mohiyatga qaratiladi. Umuman tarjimachilik tarixida shunday fikrlar mavjud bo'lgan: "Tarjimon prozada qul bo'lsa, she'rda raqibdir" [Sharipov J., 1959; 26].

Ushbu fikr rus adabiyotshunosi va shoiri Vasiliy Jukovskiyga tegishli va uni o'zbek adabiyotshunos olimi Nabi Alimuhammedov ham qo'llab-quvvatlagan. Olim va adib Jumaniyoz Sharipov esa bu fikrni inkor qilib, shunday yozadi: "Jukovskiy ham, uning fikrini takrorlagan Alimuhammedov ham bu masalada haqli emaslar. She'r tarjimasi og'ir mehnat ekanligini bilamiz. Tarjimon uslubnigina saqlab qolmasdan, ohangni, qofiyalar xususiyatini, hajmni va hokazolarni saqlab qolmog'i kerak. Lekin bu muallifning raqibi bo'lishi kerak degan ma'noni anglatmaydi. Tarjima ikki xalq o'rtasidagi do'stlik aktidir" [Sharipov J., 1959; 26].

Tarjimashunos J. Sharipov ushbu fikrning bir tomoniga e'tiroz bildiradi. Pushkin yuqori baholagan mohir tarjimon Jukovskiy ham, shuningdek Alimuhammedov ham boshqa bir narsani ko'zlashadi. Ularning nazdida she'riy tarjima murakkab jarayon-u nasriy tarjima esa oson degan fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishadi. Bunday fikrlar bugungi kun tarjimachiligida ham yo'q emas. Tarjima janrlarining birini ustun qo'yib, ikkinchisini pastga urib bo'lmaydi. Ikkala janr ham ijodiy, badiiy izlanishni talab etadi. Har bir janr o'ziga xos murakkabliklarga ega.

Masalan, milliy qadriyatlarni, fe'l-atvordagi imo-ishoralarni aynan tarjima qilib bo'lmaydi. Bir xalqda tasdiqni bildirgan harakatlar ikkinchi xalqda inkorni bildirishi mumkin. Yana maqol va matallarni tarjima qilishda ham murakkabliklar ko'p. Askiya va majoziy obrazlarni tarjima qilish esa undan-da qiyin. Prozaik tarjima jarayonining mohiyati til faktlarining qiyosidan iborat bo'lsa-da, qayta ifodalanganda murakkab jarayon paydo bo'ladi. Shuning uchun ham munaqqid, filologiya fanlari doktori Ibrohim G'afurov tarjimaga "Badiiy tarjima – ijod va qayta yaratish", deya ta'rif bergan [Xayot-hayol-hiyobon, 2007; 225].

Filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov esa tarjima haqida shunday deydi: Tarjima shunchaki adabiy vosita emas. Balki, insoniyat qo'lga kiritgan adabiy-badiiy kashfiyotlar, ijod namunalarini o'zaro baham ko'rish, birga bahramand bo'lish, madaniy-ma'naviy yuksalish omili hamdir [Komilov N., 2007; 64].

Asliyat matni Lola Tojiyeva talqinida. Asar ona yurtga, insoniyatga ulug'vor mehr-muhabbatga yo'g'rilgan kuchli hayajon va katta ehtiros bilan yozilgan. Bir gap bilan aytganda, muallif bir-biriga uyg'un novellalar orqali o'z yurtiga, eliga bo'lgan ulug'vor muhabbatni, go'zal va ezgu tuyg'ularni go'zal ohanglarda tasvirlagan. Tarjimada ham ana shu jo'shqin ruh, go'zal tuyg'ular ifodalangan. Asliyatdagi (rus tilidagi) matn bilan shakl uyg'unligi tarjimaga ham ko'chgan.

Tarjimon bu asarni kitobxonga yetkazishda tarjimachilik san'atining turli usullaridan keng foydalangan. Ba'zan erkinroq, ba'zan misrama-misra, ba'zan so'zma-so'z tarjima qilgan. Buning natijasida juda go'zal chiqqan o'rinlari bor, asar tarjimasi shuningdek kamchiliklardan ham holi emas.

Bu asarda turli kasb egalari hayotidan olingani uchun mutaxassislikka oid atamalar ko'p ishlatilgan. Shuningdek, maqol va matallarga ham keng o'rin berilgan. Hatto, asarda ukrain xalqining askiyalari ham mavjud.

Tarjimon atamalarni tarjima qilishda o'zbek tilidagi ekvivalentini ishlatgan. Ekvivalenti bo'lmasa internatsional so'z sifatida qo'llab o'zbek tilini boyitgan.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Oddiy so'zlarni o'girishdagi murakkabliklar. Tahlilni bitta so'z ya'ni asar nomi "Tronka"ning tarjimasidan boshlaylik: Muvaffaqiyat bilan tarjima qilgan joylaridan bittasi bu "tronka" so'zining to'g'ri tarjimasidir. Chunki sarlavha asarning butun mazmun-mohiyatini belgilaydi. Badiiy asarga nom berishda yozuvchining ijodiy maqsadi, roman syujeti va kompozitsiya unsurlarining sarlavha mohiyatini ochishdagi o'rni aks etishi kerak.

Sarlavha yozuvchining kitobxonga aytmoqchi bo'lgan birinchi so'zi, ilk fikridir. Badiiy asar sarlavhasi semiotik kalit hisoblanadi. U qisqa va ixcham shaklda bo'lishi, asar qaysi janrga mansubligidan qat'i nazar uning mazmun-mohiyatini o'zida ifodalashi zarur. Matnning eng muhim tarkibiy qismi sanalgan sarlavha orqali kitobxon asar dunyosiga kiradi. Sarlavha kitobxonning idrokini faollashtiradi va uning e'tiborini badiiy matnga qaratadi. Badiiy asar nomi matnning badiiy dunyosi bilan bog'liq tarzda muallif tasvirlangan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurini ifodalaydi, uning konsepsiyasini yaxlit qilib amalga oshiradi. Asarning ilk talqini sifatida matn qabul qiluvchisi bilan aloqa o'rnatadi.

Tronka – qo'ylarning yetakchisi – serka bo'yniga osib qo'yiladigan qo'ng'iroq. Serka bo'yniga qo'ng'iroqchani osib qo'yilishidan maqsad – uning nozik jarangi qo'ylar adashib ketishining oldini oladi, atrofiga chorlab turadi. Tronkani ma'nosi rus tilida juda keng. U umuman, chorlash, chaqirish ma'nosida ham ishlatiladi. Muallif kitobini shunday nomlash bilan qishloqdan chiqib ketgan yoshlarning hammasiga, kelgusida kim bo'lishidan qat'iy nazar, mashhur uchuvchimi, qo'rqmas dengizchimi, vazirmi, u o'z tuprog'i hidini, uning samimiy odamlarini hech qachon unutmasligini aytmoqchi bo'ladi. Uni voyaga yetkazgan ona qishlog'i hamisha qo'ng'iroqning mayin sasidek o'ziga chorlab turadi, demoqchi bo'ladi.

"Tronka"ni tarjimon "Hayot navosi" deb o'giradi. Tarjimon sarlavhaga nega qo'ng'iroq yoki uning boshqa ma'nodoshini olmagan? O'zbek tilidagi qo'ng'iroq so'zi tronkaga nisbatan jozibali chiqmasdi. Shu bois uning o'rniga tarjimada "navo" so'zi ishlatilgan. Bolalikda quloqqa o'rnatilgan kuy, navo kimni o'ziga jalb qilmaydi? Masalan alla! Darhaqiqat, har bir insonni ko'nglida tug'ilib, voyaga yetgan maskanini eslatadigan qalb navosi bor. Dunyoga kelgan maskanga intilish – hayot navosidir. Xotirasiga o'rnatilgan bu ohang uni hamisha chorlab turadi. U har bir insonning ko'nglida turlicha yangraydi. Odamni ezgulikka chorlaydigan, bolaligi o'tgan maskanni zoriqtiradigan qalb navosining nafis, sirli ohangida hayot mavjud. O'zbek tilida "Hayot navosi" deb berilgan sarlavha tronkani aynan tarjima bo'lmasa-da, muallif erkin tarjima orqali maqsad-mohiyatni saqlab qola olgan. Quyida asardagi ayrim muhim so'zlar tarjimasiga e'tibor qaratamiz. Jumladan, asardagi

riksha soʻzining tarjimasi xususida shunday deyish mumkin: riksha – Hindistonda odam tortib yuradigan arava-taksi. Tarjimada uning aynan oʻzi qoʻllangan. Chunki Oʻzbekistonda bunday arava yoʻq. Atamalarining aynan oʻzini qoldirish va izoh usulidan foydalanish tarjimachilikda sinalgan usullardan. Rikshani internatsional soʻz sifatida oʻzini qoldirib, erkin tarjima-izoh orqali mohiyat ochib berilgan. Bugungi Hindistonda riksha haliyam bor. Biroq, uni hammol tortib yurmaydi. Arava velosiped yoki motosiklga ulangan.

Yana, asliyatda “najir” soʻzi ishlatilgan, bu ukraincha milliy taom. Ushbu soʻzning oʻzi olinsa, albatta izoh kerak. Agar ekvivalenti keltirilsa, u oʻzbekmi yoki ukrainmi bilmay qolamiz. Tarjimon birinchi yoʻlni tanlaydi. Shavliga oʻxshash taom ekanligini izohlaydi.

Antarktidada qorni yorib chiqadigan gul, yaʼni bizdagi boychechakka oʻxshash oʻsimlik ayozgul deya oʻgirilgan. Uni aynan olsa ham boʻlardi. Chunki Antarktidada oʻsadigan gul Oʻzbekistonda oʻsmasligi aniq. Ammo chiroyli tarjimaga duch kelamiz: ayozgul. Bu soʻz orqali mohiyat ochilgan.

Shuningdek, piket, nivelirovka kabi geodeziyaga xos soʻzlar tarjimasida qanday yoʻl tutish kerak? Bunday atamalarining oʻzbekchasini topish qiyin. Ularni internatsional soʻzlar qatoriga kiritsa ham boʻladi. Bunday paytda tarjimon soʻzlarning aynan oʻzini qoʻllab, izoh berish yoʻlidan borgan.

Biroq, asarda qoʻllanilgan ayrim soʻzlarning oʻzbekcha muqobili boʻlsa-da, tarjimon ularni oʻgirmay ruschadagi nomlaridan foydalanavergan. Masalan, katlavon, zaboy, petlya, tros, fartuk kabi soʻzlar ishchilar sinfiga xos atamalar. Bunday soʻzlarni tarjima qilish kerak edi, albatta. Masalan: petlya soʻzini xalqa deb oʻgirsang boʻlardi. Chunki bu adabiyot axir! Personaj tilida ishlatganda aynan olsa, balki boʻlaverardi. Izoh berib ketilaverardi. Hatto shunda ham yana bir karra oʻylab koʻrish kerak boʻlardi.

Tarjimada yana shunday jumla bor: “Burilishda inersiya kuchi bilan bolalar bir-biri ustiga yiqilib ketishdi”. “Inersiya kuchi”ni fizikadan bexabar boʻlgan kitobxon tushunmaydi. Shuning uchun “Mashina shiddatli, qaltis burilganligi tufayli bolalar bir-biri ustiga zarb bilan yiqilib ketishdi” tarzida oʻgirilganda, mazmunida koʻp ham oʻzgarish boʻlmasdi.

Tarjimon “умывальник” soʻzini “osma dassho” deb juda toʻgʻri chiroyli va mazmunli oʻgiran. V.V. Reshetovning umumiy rahbarligida chop etilgan “Ruscha – oʻzbekcha lugʻat”da “умывальник” – “yuz-qoʻl yuvish asbobi” deya oʻgirilgan. Balki ana shunday ishlatish maʼqulmidi! Chunki dasshoʻ forsha soʻz, axir.

Rus adabiyotida 18-19-asrlarda rus tilida boʻlgan soʻzlarni qoʻllamasdan nemischa, inglizcha, fransuzcha soʻzlarni qoʻllash urf boʻlgan. Hatto diologlarda jumlar qoʻllanilgan. Bunga hammamiz sevib oʻqiydigan “Anna Karenina”, “Urush va tinchlik” romanlari misol boʻla oladi. Rus adabiyotshunoslari ushbu usulni qoralashgan, milliy til yoʻq boʻlib ketishiga sabab boʻlishini taʼkidlab, rus tilini saralash lozim degan fikrlarni aytishgan. Tabiiy, bu tilning kamsitilishiga va yoʻqolib ketishiga olib kelardi.

Maqol va iboralarning tarjimasi. Nasriy asar tarjimasida tugʻiladigan qiyinchiliklardan yana biri – maqol, matal, latifa, ibora va masallar tarjimasidir.

Ularda milliylik, xalq og‘zaki ijodiga yaqinlik nihoyatda kuchli ifoda topadi. Yuqorida aytganimizdek, asarda turli kasb egalari haqida hikoya qilinadi. Tarjimon o‘sha soha vakillariga xos so‘z, atama, maqol, matal, latifa va masallarni ham yaxshi bilishi va ulardagi mantiqni buzmasdan o‘girishi muhim.

Masalan, originalda: “Больше летаешь – больше живешь”, iborasi bor. Tarjimada: “Qancha ko‘p uchsang – umring shuncha uzoq bo‘ladi” deb beriladi. Uchuvchi tilidan berilgani uchun tarjimon maqolning aynan o‘zini olgan. Albatta, bu o‘rinli. Biroq, tarjima birinchidan maqolga o‘xshamaydi, jumla cho‘zilib ketgan. Maqollarga xos qisqa va lo‘nda ohangni bersa, yanada maqsadga muvofiq bo‘lardi. Zero, xalq maqollari qisqa va lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun “Ko‘p uchsang – ko‘p yashaysan” deyilsa, ma‘qulroq bo‘lardi.

Matallar ham shunday o‘girilgan. Goh aynan, goh ekvivalenti keltiriladi, gohida oddiy so‘zlar bilan ma‘nosi anglatiladi. Ekvivalentini keltiraverish ham oson emas, albatta.

“Едишь да все на одном месте” matali “Yo‘lga tushyapman deysan-u, o‘zing bir joyda tuxum bosib o‘tirasan” deb tarjima qilinadi. O‘zbek tilidagi ibora bilan erkin o‘girgani maqsadni yanada aniqlashtirib turibdi. Chunki “Bir joyda deysanib turibsan” jumlasini o‘rniga “bir joyda tuxum bosib o‘tirasan” degan ibora ishlatilmoqda. Albatta, ushbu usul ma‘qulroq. Ibora bilan o‘girgani kitobxon diliga, tiliga yaqinroq.

“Я вам не какойнибудь” jumlasini “Bo‘zchining mokisidek borib kelavermanmi?” iborasi bilan, “Уж он ей задаст, когда отыщет” jumlasini “Boplab po‘stagini qoqadi” iborasi bilan o‘girib, jumlar mazmun-mohiyatini o‘zbek tilidagi matallar vositasida muallifning o‘tkir tiliga yaqinlashtirishga muvaffaq bo‘lgan.

“Известно же: Стрелочник всегда виноват” jumlasini “Ayb o‘zimizda, aravakash aybdor” deya o‘girilib, matalning o‘zbek tilidagi ekvivalenti keltirilgan. Buning uchun muallif har bir matalning ma‘nosini bilishi, mohiyatni his qilishi kerak. Shundagina ekvivalentni topadi. Ana shunday muvafaqiyatli o‘girilgan matallarga bir misol: “Баловство это всё” gapini “To‘qlikka sho‘xlik” shaklida o‘zbekona ibora bilan o‘giradi. Yoki: “Такие речи каково мне слушать?” ifodasi ham “Shunday gaplar gapiradiki, uni eshitsa ilon ham po‘st tashlaydi” deya originaldagi oddiy so‘zlar ibora bilan o‘giriladi.

“Труд облагораживает” jumlasini aynan tarjimada: Mehnat bezaydi, degan shaklda o‘girilishi mumkin. Tarjimon esa uni “Mehnat – zebu ziynat” deb muallifning fikrini maqol orqali ifodalaydi.

O‘zbek tilining imkoniyatlaridan foydalanib, oddiy so‘zlarni maqol va matal bilan o‘girgani tarjimaning yutuqini ta‘minlagan.

Tarjimon gohida iboralarni, matalni oddiy so‘zlar bilan o‘giradi. “Ценю твое дело, но и свою кашу плюнуть не дам” gapini “Sening ishingni hurmat qilaman, ammo o‘zimning oshimga tupurgani qo‘ymayman” deb aynan tarjima qilmasdan, “U sening ishingni ham hurmat qiladi, o‘zinikini mensimaslikka yo‘l qo‘ymaydi” – deb o‘giradi.

Xulosa qilib aytganda, tarjimon Lola Tojiyeva maqol va iboralarning ba‘zan ekvivalentini keltirgani, ba‘zan so‘zma-so‘z tarjima qilgani, ba‘zan rus tilidagi oddiy

so‘zlarni o‘zbek xalq maqollari, iboralari bilan o‘g‘irgani asar mohiyatini anglab yetishdagi muayyan yutuqlarni ta‘minlagan.

Milliy qadriyatlarga daxldor so‘z va jumlarlar tarjimasiga e‘tibor. Kognitiv so‘zi inglizchadagi “bilmoq”, “anglamoq”, “idrok etmoq”dan olingan, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur, ong bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishdagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining individual ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslikning vazifalaridan biri – funksional-semantik maydonning milliy-madaniy xususiyatlarini turli omillar asosida chuqur tadqiq etishdir. Har qanday madaniyat atrof-muhit, jamiyat ta‘sirida taraqqiy etib, o‘zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan, dastlab, voqelikni moddiy va ma‘naviy o‘zlashtirishdagi farqi bilan ajralib turadi va ular tilda ham o‘z aksini topadi.

Nasr tarjimasida milliy qadriyatlarga daxldor oddiy jumlarlar o‘g‘irilayotganida kognitiv tahlilga murojaat qilinadi. Tarjimon so‘zning erkalash, kichraytirish, ulug‘lash, piching kabi ma‘nolarini aniq his qila olishi, idrok etmog‘i kerak. Albatta, shundagina asliyatga mos yondashish mumkin.

Masalan: “Орлы не солнце смотрят” gapini “Lochinlar quyoshga tik qarashadi”, deya o‘g‘irgan. Bu iborani o‘g‘irish uchun uchta so‘zning o‘zbekchasini bilish kifoya. Asliyatda gap mag‘rur yigitlar haqida borayati. Demak, o‘zbek tilida inson fe‘l-atvoriga nisbat berilayotganda, ko‘pincha, lochin so‘zi qo‘llaniladi. Shuning uchun burgutning o‘rniga lochin so‘zini qo‘llagan va mag‘rurlik ohangini berish uchun tik so‘zini kiritgan. Tashqaridan kiritilgan tik so‘zi bilan endi mag‘rurlikni ifodalamoqda.

Tarjimada o‘zbeklarga xos urf-odatlar ham e‘tiborga olinganligi va ba‘zan erkin ijodiy tarjimaga yo‘l qo‘yilgani kuzatiladi. Masalan, “Вишь какие Адамы и Евы” jumlasini o‘zbekchaga “Odam ota bilan Momo Havolarni qara-yu” ko‘rinishida o‘g‘irilgan. O‘zbek xalqi ajdodini, o‘zidan kattani hurmatlab aka, opa, ota, aya kabi so‘zlarni qo‘shib gapiradi. Shuning uchun ham Odam so‘zi yoniga ota, Havo so‘zi yoniga Momo so‘zi qo‘shilgan. Ko‘rinib turibdiki, oddiy bir gapni tarjima qilish uchun ham erkin ijodiy yondashish muvaffaqiyatni ta‘minlaydi.

Asarning uch o‘rnida milliy taom tilga olingan. Birinchisi – *najir*. Ushbu milliy taomni tarjimon o‘zbek tilida o‘z nomini aynan olib izoh bilan berib ketadi. Ikkinchisi – *tuzluk*. Ushbu milliy taom yog‘och tovoqlarda yeyilgan. U tarjimada ovqat deb o‘g‘irilgan va izoh berilgan. “Тузлук давно уже едят из миск” – Ovqatni yog‘och tovoqda yeyishmaydi. Bu yerda gap ovqat haqida emas. Balki muzeyga topshirish kerak bo‘lgan idish haqida ketyapti. Shuning uchun uni ovqat deb o‘giradi.

“Кашу в кожужени”si uchun emas, balki o‘g‘li uchun hurmat qiladi. Kasha, o‘zbekcha bo‘tqa, atala. Ammo o‘zbek tilida bu mehmon kelganda tayyorlanadigan taom emas. Aynan tarjima qilinsa, o‘zbekchada o‘sha ma‘noni bermaydi. Shuning uchun muallif uni “Po‘stinga o‘rab pishirilgan shavla” deb oladi. “Po‘stinga o‘rab pishirgan shavlasini uchun emas, balki qishloqning faxri bo‘lgani uchun hurmat qilishadi”.

Xullas, milliy taomlar uch joyda uch xil uslubda o‘g‘irilgan. Tarjimonning o‘ziga xos yondashuvi – ularning qaysi o‘rinda nima maqsadda ishlatilayotganini his qilishi

uning yutug‘ini ta’minlagan.

Milliy an‘analar, urf-odatlarga xos so‘zlar tarjimasi ham qiyin ish. Millatning xarakteri, xususiyatlari kiyim-kechakda ham ifodalanadi. Masalan: “do‘ppisining kartuzi” deb o‘g‘irgan so‘z mavjud. Ukrainlarga do‘ppi kiygizib qo‘yish noto‘g‘ri albatta. Shuning uchun kartuzi so‘zini qo‘shgan bo‘lishi kerak. Mana shunday ba’zi murakkabliklar ham bor.

Asarda insonning zohiriy tasviridagi sifatlashlarning ifodasi qay tarzda berilgan? Bir xalqda bo‘lgan chiroyga oid o‘xshatish ikkinchi xalqning didiga to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin.

Masalan, muallif katta chiroyli ko‘zlarni “Орехово-карими глазами” deya ifodalaydi. Bu muallif mehr-muhabbat bilan tasvirlayotgan – hamisha ko‘zi kulib chaqnaq turadigan o‘n yetti yoshli qizning ko‘zi tasviri. Buning aynan tarjimasi – “yong‘oqdek katta qo‘y ko‘zlar” bo‘ladi. O‘zbek uchun ma’nosiz va bir oz kulguli ham. Bu tasvirda o‘zbek xalqi tushungan qizlarga xos nazokat, nafislik yo‘q. Bizda katta-katta chaqnaq turgan o‘n yetti yoshli qizning ko‘zini ohu ko‘ziga yoki ohuning bolasi quralayga nisbat beradilar. O‘yingaroq sho‘x qizchaga bu ko‘zlarning sifati juda mos. Shuning uchun tarjimon originaldagi o‘xshatishdan chekinib, quralay ko‘zlar deb o‘giradi. Shu yo‘l bilan tarjimon muallifning asosiy maqsadini va xalqning estetik g‘oyalarini ifodalay olgan.

Yana oddiy erkalab aytilgan boshqa bir so‘zning o‘g‘irilishiga e’tibor qilaylik. “Твоя сумасбродка” jumlasini aynan “Sening tentaging” tarjima qilinadi. Ammo bu yerda tom ma’noda tentak haqida emas, balki yoshlik sho‘xliklari to‘xtamagan qizcha haqida gap ketmoqda. Shuning uchun tarjimon tashqaridan dumbul so‘zini qo‘shadi va dumbul – tentaging, deb tarjima qiladi. Yoki: “Черные роскошные усы” tarjimada: “Go‘zal qora mo‘ylovlari” bo‘lishi mumkin edi. Tarjimon bu jumlaning o‘g‘irishida go‘zal so‘zi o‘rniga zulukdek sifatini oladi va qora so‘zi yoniga tim so‘zini qo‘shadi. Natijada o‘zbek kitobxonining ko‘z oldiga “Zulukdek tim qora mo‘ylovi” ifodasi taqdim etiladi.

Yana bir o‘xshatishni olaylik: Asliyatda “Мы трава” qiyosi mavjud. Трава – aynan tarjimada o‘t, ko‘kat. Dunyoga kelib hech ishini uddalamagan notavon odam o‘zbek tilida o‘tga qiyoslanmaydi. Balki, u xas-cho‘pga o‘xshatiladi. Tarjimon ham buni hisobga olib, “мы трава”ni – biz o‘tmiz deb emas, xas-cho‘pmiz deb o‘giradi. Bu asar mohiyatini, obrazning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

“Тронка” asarida “великан” sifatlash so‘zi ikki joyda ishlatilgan. “Человек великаном стал”. Odamlar juda devqomat bo‘lib ketishdi. Yana bir joyda “Океанский великан” ifodasi orqali paraxod haqida gap ketadi. Uni tarjimon “Океан pahlavoni” deb o‘giradi. Tarjimon asliyatdagi bitta so‘zni ma’no-mohiyatiga qarab, bir joyda devqomat deb qo‘llasa, ikkinchi joyda pahlavon deb o‘g‘irgan.

Har bir xalqning estetik didini, o‘ziga xos go‘zalligini ifodalovchi so‘zlar, belgilar bor. Masalan: klepsi – quloqqa taqiladigan sirg‘a. Nafosat, nazokat ifodasi bo‘lgan zirakni taqish uchun xalqimizda quloqni teshish qadriyati mavjud. Shuning uchun xalqimizda quloqni qisib turadigan sirg‘aga hojat yo‘q. Elimizga keyinchalik kirib kelgan urf-odatlardan biri klepsi taqishdir. Uni elimizda aynan o‘zbekchasi

bo'lmagani uchun "qisma isirg'a" deb o'giradi. Ushbu topilma-tarjima ham ayozgul kabi o'ziga xos go'zal topilmadir. Yoki: gajak – o'zbek ayollarining nafosati ramzi. Mumtoz adabiyotda go'zallik timsoli sifatida keng qo'llanilgan. U chakkaga to'lqinsimon qilib tushirib qo'yilgan gajak soch bo'lagi. "На лоб челкой" jumlasini tarjimon peshonasiga gajak qo'ygan, deb o'giradi. Bu aynan tarjima emas, lekin go'zallikni ifodalash uchun aynan ushbu qadimiy go'zallik timsoli qiyosan qo'llangan.

Asliyatda inson go'zalligini ifodalaydigan tasvirlar borki, ushbu qiyosiy o'xshatish o'zbek kitobxoniga ham tushunarli. Unday paytda L.Tojiyeva aynan tarjima qilish yo'ldan boradi. Masalan, "Беленкие как утенечек" jumalari "O'rdak jo'jasidek oppoqqina" deya aynan olingan. O'zbek xalqida oppoqlik ifodasi asosan "sutga chayib olgandek", deb ishlatiladi. Ammo o'rdak jo'jasidek oppoqqina deb aynan olish ham hech narsani o'zgartirmaydi, asliyatning o'xshatishi ham o'z joyida qoladi. Bir so'z bilan aytsak, aynan va tushunarli o'zbekchalashtiriladi.

Badiiy tarjimada tarjimonning estetik didi ham bo'lishi kerak. Umuman olganda, did tushunchasi barcha xalqlarda ham qotib qolgan tushuncha emas. Balki, tarixan o'zgaruvchan kategoriyaga kiradi. Badiiy asarda aks etgan bir xalqning hamda muallifning go'zallik haqidagi tasavvurini boshqa xalqning, ijodkor tarjimonning didiga moslashtirish ham maqsadga muvofiq emas. Bu yerda ham me'yorni bilish zarur. Ana shu nuqtai nazardan ba'zi kamchiliklarini hisobga olmaganda, tarjimalar muvaffaqiyatli chiqqan, deb aytish mumkin.

Majoziy obrazlar tarjimasi haqida so'z. Majoz – adabiy-badiiy usul yoki obrazlilik turi bo'lib, mavhum tushuncha yoki mulohazani aniq bir obraz vositasida ifoda etishdir. Bunda ikki tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Majoz asarning badiiy-estetik qimmatini, ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladigan vositalardan biridir. Asliyatda majoziy obrazlar ko'p ishlatilgan. Majoziy obrazlar tarjimasi ham tarjimonidan katta mahorat talab qiladi. Lola Tojiyeva asliyatda qo'llanilgan majoziy obrazlar o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lsa, ya'ni ikki tildagi mazmun-mantiq bir-biriga yaqin bo'lsa, uni asliyatdagidek tarjima qiladi.

Masalan, aynan tarjima: "Bizning ota-bobolarimiz piyoda yurishgan, garchi ko'pchiligi o'zini burgutga qiyos etsa ham". Insonni burgutga qiyoslash o'zbek xalqida ham bor. Aynan olsa bo'laveradi.

Asliyatda "Tulkidek pisib keldi" sifatlashi bor. Tulki – majoziy obrazi o'zbek tilida ham ehtiyotkor, ayyor obraz timsoli bo'lib keladi. Ushbu majoziy ifoda ham so'zma-so'z o'girilgan.

"Qushdek sergaklik bilan qarab turibdi". Ushbu ifoda ham so'zma-so'z o'girilgan. Qush sergaklikni bildiruvchi majoziy obraz. Ushbu sifatlash o'zbek tilida ham mavjud va tushunarli.

Inson xarakteriga berilgan qiyoslarga e'tibor beraylik. Masalan, "shamolday beqaror" sifatlashi bor. Inson xarakteriga bunday nisbat berish o'zbek xalqida ham uchraydi. Tarjimon bu jumlaning aynan o'girib to'g'ri yo'ldan borgan.

Biroq, tarjima asarda aynan o'girib biroz xatoga yo'l qo'yilgan o'rinlar ham yo'q emas. "Tovug'imiz bekorga qichqirmagan ekan. Tovuqning qichqirig'i bexosiyat bo'ladi". Bunday qiyos o'zbek xalqi uchun ham tushunarli. Biroq, shu o'rinda xo'rozni

olsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Tong saharlab xo'roz qichqiradi, tovuq emas. "Tovuqning qichqirig'i bexosiyat bo'ladi" gapini ham "Xo'rozning bevaqt qichqirig'i bexosiyat bo'ladi", deya o'girishi kerak edi. Bu o'rinda tarjimon rus tilidagi tarjima va muallif izidan borgan. Oqibatda, xatoga yo'l qo'ygan.

Sifatlash va o'xshatishlarning tarjimada berilishi. Ba'zida sifatlashlarning ekvivalenti keltirilmasdan ma'nosi berilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, asliyatda "тений в трусиках" sifatlashi bor. Aynan tarjima qilsa, o'zbek kitobxoni hech narsa tushunmasligi mumkin. Shuning uchun sifatlashdan kechib, iboraning to'g'ri ma'nosini beradi, bu – "Noshud geniy".

Asarda "вертихвостка" so'zi uch o'rinda ishlatilgan. Tarjimon uni mazmun-mohiyatiga qarab, uch xil so'z bilan o'giradi. Chunki asliyatda ushbu so'z inson xarakterini ochib berishda ishlatilayapti. Tarjimon uni uch xil o'girishi maqsad-mohiyatni anglashga xizmat qilgan.

Jumladan, muallif Tonyani tavsiflayotganida "вертихвостка" so'zini ishlatadi. Agar tarjimon uni yengiltak qiz deb o'girs, muallif tasvirlayotgan qizga xos xususiyat chiqmas edi. U yengiltak qiz emas, faqat hali hech narsani ko'rmagan, hayot zarbalari bilan to'qnash kelmagan, yuragiga bir olam otashni berkitgan o'n yetti yoshlik shoddod qiz. Unga nisbatan tarjimon jonli tildagi so'zni ishlatadi – "likildoq qiz".

"Тоня опять вертится около него". Endi tarjimon "вертится"ni – girdikapalak deb o'giradi. Tonya yana akasi atrofida girdikapalak bo'ladi. Shu birgina so'zni qo'llab qizning xarakterini yaqqolroq ochadi. Bu so'zda mehribonlik va samimiylik bor. Muallif ham qizning xuddi shu xususiyatini ko'rsatmoqchi.

Uchinchi marta "vertitsya" so'zini tarjimon yana boshqacha qo'llaydi. "Oynaning oldida likillagani-likillagan. O'ziniki yoqmas emish". Otning bu gapida qizining balog'atga yetayotganidan faxrlanish, erkalash hissi bo'lsa, yana bir chekkasida urf-odatlariga rioya qilmayotgan qizga nisbatan shikoyat ohangi bor. Bu tasvir tinch turmas, shoddod qizning fe'l-atvorini ochib beradi.

Harakat, turq-tarovat tasvirini o'girayotganda tarjimon uslubi. Oles Gonchar asaridagi tasvirlar qo'shiq ohangidek otashin va yoniq. Tarjimon ham ushbu uslubni saqlab qolishga intilgan. Muallifning o'ziga xos usuli shuki, obrazlar tasvirini berayotganda mehr yoki nafrat tuyg'usi ufurib turadi. Inson xarakterini tasvirlayotganida botiniy va zohiriy uning ko'rinishlarini uyg'unlashtiradi.

Masalan, uchuvchi muallifning ijobiy obrazlaridan biri. Uni mehr bilan shunday tasvirlaydi: O'ziyam rosa ko'hlik uchuvchi-da! Sog'lom, ikki yuzi anordek qip-qizil, mo'ylovi qalin, ko'rkam. Bunday mo'ylovni chindan ham yigirma tiyin to'lab, faqat kinoda ko'rish mumkin. Muallif ijobiy obrazni ana shunday mehr bilan tasvirlaydi.

Salbiy obrazni esa qahr bilan ifodalaydi. Masalan, o'yin-kulgidan, hayot zavqidan voz kechgan, "g'ilof bandasi" Yakubani tasvirlayotganda bu odamning "yuzi cho'ziq, quruq" deya tilga oladi. Yakuba tasviridagi quruq so'zi uni xarakteriga ham mos keladi. Chunki bu yerda terining quruqligi haqida gap ketayotgani yo'q. Yuzida samimiyat, ezgulik ifodasi yo'qligi haqida gap ketyapti. Tarjimon bitta quruq so'zi bilan muallifning maqsadini ochib berali.

Muallif hamisha kulib yuradigan Yegiptani tasvirlayotganda "Сверкает

молодыми белыми зубами” degan qiyosni ishlatadi. Shunga yaqinroq qiyos bizda ham bor. Hech kulmaydigan odamni – tishini oqini ko’rsatmaydi deb ta’rif beriladi. Tarjimon shunga yaqin qilib o’giradi. “Sadafdek oppoq tishlarini yaraqlatib, dedi Yegipta” deya o’giradi.

Yoki: asliyatda “смачно приговаривает” jumlasini bor. Insonning harakatini ochib beruvchi bu jumlaning “lazzatli narsa yegandek, lablarini yalab kulib qo’yadi”, deb o’giradi.

“Yegipta ketayotib kepkasini silkitdi” degan jumla bor. Uni aynan o’girsas bo’lardi. Ammo, bu yerda to’xta degan ma’noni ham, ketaver degan ma’noni ham anglash mumkin. Shuning uchun tarjimada “xayr degandek” so’zini qo’shadi.

Yana bir joyda “Umuman bir narsaga aqlim hayron, – yelkasini qisadi yigit” jumlasini asliyatdan so’zma-so’z o’girib taqdim etadi. Shu bilan birga harakat mohiyatini aniq tushuntirish uchun tarjimon ba’zi bir jummalarni qo’shadi. “Ancha chuqur do’stona mehrning isi kelib tursa ham” degan jummalarni tashqaridan kiritadi.

Yoki asarda kelgan “Марш, тогда отсюда” jumlasini bor. U maqol yoki matal emas. Agar u so’zma-so’z tarjima qilinsa, tasvirlayotgan obrazga xos xususiyat, keskinlik ifodalanmasdi. “Qani, tuyog’ingni shiqillat bu yerdan” deb erkin tarzda o’girilishi muallif tiliga mosligi va qahramonning fe’l-atvorini ochib berishga xizmat qilishi bilan qimmatlidir.

“Я вот на что успел” gapini o’zbekona maqol bilan o’girgani ham maqsadni, romandagi qariya obrazini, uning tabiatini to’liq ochib berishga xizmat qilgan, ya’ni: “Bir oyog’im to’rda, bir oyog’im go’rda”.

Asarda gopak raqsi haqida ham so’z ketadi. Gopak raqsi – milliy o’yin. Tarjimon uni o’zgartirmasdan qo’llaydi. “Хлопцы как ударили гопак” – “Yigitlar gopak raqsiga tushishdi”. Bunda raqs so’zini tashqaridan kiritib, izoh berib ketadi.

O’zbek xalq og’zaki ijodidagi askiyaga xos hazillashuvlar ukrainlarda ham bor ekan. Asliyatda qiz “Tug’ilgan joyimdan boshqa hech qayerni ko’rmagan ekanman” deb yarim hazil, yarim havas bilan gapirsa, unga sinfdoshi: “Hattoki sen hali o’z qishlog’ingni bo’risini ham ko’rganing yo’q”, deb askiya bilan javob qaytaradi. Bu yerda bo’ri – majoziy obraz. O’zbek xalqida bo’ri – deb o’g’ri, yulg’ich, bosqinchi kishilar tushuniladi. Masalan, “Qo’ylarni ikki oyoqli bo’rilar yeb ketishibdimi?”. Bu – bo’ri so’zining o’zbek tilidagi ko’chma ma’nosi. Asarda yomon odamlarni ko’rmading ma’nosida ham gapirilmogda.

Muallif yosh yigit Vitaliyni tashqi qiyofasini tasvirlayotganda yolg’onchilarnikiga o’xshash chuqurchasi bor. Aslida esa u yolg’onchi emas, deydi. Ukrain xalqida qansharida chuqurchasi bo’lsa, yolg’onchi degan ma’noni beradi. Ammo o’zbeklarda bunday qiyoslash ham, o’xshatish ham yo’q. Shuning uchun izoh bilan o’girishga to’g’ri keladi. Bunda tarjimon to’g’ri yo’l tanlaydi.

Biroq, ba’zan tarjimon el ichidagi kinoya, hazil so’z-u gaplarni o’girayotganda izoh bermasdan, aynan tarjima qilib ketadi. Natijada ma’no chiqmay qoladi. Masalan, среда, ya’ni chorshanba so’zi ukrainlarda qandaydir ko’chma ma’noda ishlatilar ekan. Oles Gonchar asarida “Сосредаю” degan hazil latifa bor. Bu latifa aynan tarjima qilingan va mohiyati tushunarsiz bo’lib qolgan. Shu yerda biroz izoh kerakmidi?

“Yigit nimagadir shama qilyapti. Hamma kuladi”, deya o‘tib ketadi.

Tabiiy ijtimoiy, tarixiy sababiyatlar taqazosi bilan tug‘ilgan hamda har bir xalqning o‘ziga xos ruhiy holatini aks ettiruvchi tasavvur va tushunchalarni o‘zga tilda ifodalash tarjimondan g‘oyat ehtiyotkorlikni talab qiladi. Balki, shuning uchun ham bu yerda yuzaki yondashib o‘tib ketilgandir.

XULOSA

Asliyatning murakkabligi shundaki, romanda cho‘pon, ishchi, dengizchi, uchuvchilar haqida hikoya qilinadi. Unda turli kasblarga doir atamalar ham, maqolu matallar ham, xalqning milliy qadriyatlariga daxldor askiyalar ham ko‘p ishlatilgan. Asliyatdagi atama, maqol, matal, askiyalarning ekvivalentini keltirish ham hamisha to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Shuning uchun tarjimon ularni gohida aynan tarjima qiladi, gohida ekvivalentini, ya‘ni rus tilidagi so‘zga o‘zbek tilida teng bo‘lgan so‘zni ishlatadi. Ba‘zi o‘rinlarda fikrni saqlab qolib, oddiy so‘zlar bilan ham tarjimaa qiladi. Gohida aynan o‘zini berib, izohlardan foydalanadi.

Akmal Saidov “Erkin akaning o‘zbekcha “Faust”i” maqolasida tarjima san‘ati haqida shunday deydi: Asarning falsafiy va huquqiy, ruhiy-ma‘naviy va badiiy jihatlarini talqin qilishda tarjimon qat‘iy yo‘ldan borishi, ya‘ni ana shu barcha qirralarni to‘la anglab yetishi va o‘z qalbidan o‘tkazib olishi talab etiladi [Saidov A., 2016; 51].

Akmal Saidov ta‘kidlaganidek, Lola Tojiyeva nafaqat asarning mazmuni va shaklini, balki Oles Goncharning tafakkuru qalb tovushini, obrazlarining ruhiy-ma‘naviy olamini ham ifoda eta olgan.

Umuman olganda, tarjimon asarning mazmun-mohiyatini yetkazib bera olgan. Kognitiv tilshunoslikning vazifalariga ko‘ra, ukrainlar funksional-semantik maydonining milliy-madaniy xususiyatlarini turli omillar asosida chuqur tadqiq eta olgan va uni ong-shuuriga singdirib, Oles Gonchar asarini o‘zbek tilida qaytadan yaratgan.

Roman-novellani o‘qib ukrain xalqiga mehringiz oshadi. Go‘yo o‘zimizning elimiz haqida, tog‘liklar, dasht odamlari hayoti haqida o‘qiyotgandek bo‘lasiz. Lekin ularning ukrain ekanligini har bir jumlada his qilib turasiz. Bu, albatta, tarjimon Lola Tojiyevaning munosib tarjimasi, asliyatning mazmun-mohiyatini ochib bera olganidan so‘zlab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I.A. (1998). *Ma‘naviy yuksalish yo‘lida*. Toshkent: O‘zbekiston NMIU.
2. Karimov, I.A. (2008). *Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch* (128-, 174-b.). Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti.
3. Mirziyoyev, Sh.M. (2017, 8-fevral). “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *Xalq so‘zi*, 8.
4. Mirziyoyev, Sh.M. (2017, 4-avgust). Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. *Xalq so‘zi*.
5. Mirziyoyev, Sh.M. (2018). *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir* (333-339-b.). Toshkent: O‘zbekiston NMIU.

6. Abdullayev, M., Abdullayeva, M., Abdurazzoqova, G. (1998). *Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at* (317 b.). Toshkent: Sharq.
7. Abduraximov, M. (1980). *Kratkiy uzbeksko – russskiy frazeologicheskiy slovar*. Toshkent: O'qituvchi NMIU.
8. Azizov, O., Akobirov, S., Alieva, F. (1954). *Russko-uzbekskiy slovar* (1046 b.). Moskva.
9. Aznaurova, R. (1961). *Badiiy tarjimalarning asosiy problemalari* (12-b.). Toshkent: O'zSSR Davlat nashriyoti.
10. Bakirov, P. (2008). *Milliy g'oya targ'ibotida o'zbek xalq maqollaridan foydalanish*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
11. Federov, A.V. (1958). *Vvedenie v teoriyu perevoda* (s. 95). Moskva.
12. G'afurov, I. (1970). *Joziba: adabiy badialar; she'riyatimiz haqida o'ylar* (197 b.). Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
13. Gonchar, O. (1975). *Sobranie sochineniy v pyati tomax* (ss. 7-282). Moskva.
14. Gonchar, O. (1951). *Znamenossi* (roman- trilogiya) (479 s.). Toshkent: Uzdavnashr.
15. Gonchar, O. (1960). *Povest va hikoyalar* (158 b.). Toshkent: Uzdavnashr.
16. Gonchar, O. (1972). *Hayot navosi* (novella-roman) (320 b.). Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
17. *Xayot-hayol-hiyobon*. (2007). (225-231-b.). Toshkent: G'afur G'ulom NMIU.
18. Hotamov, N.T. (1069). *Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at*. Toshkent: O'qituvchi NMIU.
19. Isakova, Sh. (2004). Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks etishi. *Fil. fan. nomz. dis. avtoref*. Toshkent.
20. Komilov, N. (2007). *Badiiy tarjima ustasi* (64-b.). Toshkent: G'afur G'ulom NMIU.
21. Komissarov, V.N. (1999). *Obshaya teoriya perevoda* (ss. 53-54). Moskva.
22. Mamajanov, S. (1963). *Shoir va zamonaviylik* (207 b.). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.
23. Mirzayev, T., Musoqulov, A., Sarimsoqov, B. (2003). *O'zbek xalq maqollari* (510 b.). Toshkent: Sharq NMIU.
24. Ojegov, S.I. (2006). *Tolkoviy slovar russkogo yazika*. Moskva.
25. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati* (406 b.). Toshkent: Akademnashr.
26. Rahmatullayev, Sh. (1992). *O'zbek tilining frazeologik lug'ati* (78-b.). Toshkent.
27. *Russko-uzbekskiy slovar*. (1955). Toshkent: Akademii nauk UzSSR.
28. Saidov, A. (2016). *Erkin akaning o'zbekcha "Faust"i* (51-b.). Toshkent: O'zbekiston NMIU.
29. Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi NMIU.
30. Sharipov, J. (1959). *She'riy tarjimaning ba'zi masalalari* (26-b.). Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
31. Sodiqova, M. (1972). *Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at* (192 b.). Toshkent: Fan nashriyoti.
32. Tarjimaning yuksak g'oyaviyligi va yuksak mahorati. (1952). *Zvezda Vostoka*, 2.
33. Tixonov, A.N., Hatamov, N.T., Yemelyanova, S.A. (1979). *Russko-uzbekskiy tematiceskii slovar*. Toshkent: O'qituvchi NMIU.
34. Vinogradov, V.V. (1975). Leksicheskie voprosi perevoda xudojestvennoy prozi. *Avtoref. dis. dok. filol. nauk*. (66 s.).
35. Zaripova, R. (2021). *Tarjima san'ati va tarjimon mahorati* (132 b.). Toshkent: "Tafakkur qanoti" nashriyoti.
36. <https://www.livelib.ru>

REFERENCES

1. Karimov, I.A. (1998). *On the way to spiritual growth*. Toshkent: Uzbekistan Publishing Press House.
2. Karimov, I.A. (2008). *High spirituality – an invincible force* (pp. 128, 174). Toshkent:

- Spirituality Publishing.
3. Mirziyoyev, Sh.M. (2017, February 8). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021". *People's Word*, 8.
 4. Mirziyoyev, Sh.M. (2017, August 4). The development of literature, art and culture is a solid foundation for the development of the spiritual world of our people. *People's Word*.
 5. Mirziyoyev, Sh.M. (2018). *The consent of our people is the highest assessment of our activities* (pp. 333-339). Tashkent: Uzbekistan Publishing Press House.
 6. Abdullaev, M., Abdullaeva, M., Abdurazzakova, G. (1998). *Popular scientific dictionary with explanations of independence* (317 p.). Tashkent: East.
 7. Abdurakhimov, M. (1980). *Short Uzbek-Russian phraseological dictionary*. Tashkent: Teacher Publishing Press House.
 8. Azizov, O., Akobirov, S., Alieva, F. (1954). *Russian-Uzbek dictionary* (1046 p.). Moscow.
 9. Aznaurova, R. (1961). *The main problems of literary translation* (p. 12). Tashkent: UzSSR State Publishing.
 10. Bakirov, P. (2008). *Use of Uzbek folk proverbs in the promotion of national ideas*. Tashkent: Spirituality Publishing.
 11. Federov, A.V. (1958). *Introduction to the theory of translation* (p. 95). Moscow.
 12. Gafurov, I. (1970). *Charm: literary works, thoughts about our poetry* (197 p.). Tashkent: Literature and Art Publishing.
 13. Gonchar, O. (1975). *Collected works in five volumes* (pp. 7-282). Moscow.
 14. Gonchar, O. (1951). *Banner-bearers* (novel-trilogy) (479 p.). Tashkent: Uzbekistan State Publishing House.
 15. Gonchar, O. (1960). *Tale and stories* (158 p.). Tashkent: Uzbekistan State Publishing House.
 16. Gonchar, O. (1972). *The melody of life* (novel) (320 p.). Tashkent: Literature and Art Publishing.
 17. *Life, imagination, alley*. (2007). (pp. 225-231). Tashkent: Gafur Gulam Publishing Press House.
 18. Hotamov, N.T. (1069). *Brief Russian-Uzbek terminological dictionary of literary criticism*. Tashkent: Teacher Publishing Press House.
 19. Isakova, Sh. (2004). Reflection of nationalism and historicity in literary translation. *Dis. abs. can. phil. sci*. Tashkent.
 20. Kamilov, N. (2007). *Master of literary translation* (p. 64). Tashkent: Gafur Gulam Publishing Press House.
 21. Komissarov, V.N. (1999). *General theory of translation* (pp. 53-54). Moscow.
 22. Kuronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. (2013). *Literary Dictionary* (406 p.). Tashkent: Akademnashr.
 23. Mamajanov, S. (1963). *Poet and modernity* (207 p.). Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
 24. Mirzaev, T., Musokulov, A., Sarimsakov, B. (2003). *Uzbek folk proverbs* (510 p.). Tashkent: East.
 25. Ojegov, S.I. (2006). *Explanatory dictionary of the Russian language*. Moscow.
 26. Rahmatullaev, Sh. (1992). *Phraseological dictionary of the Uzbek language* (p. 78). Tashkent.
 27. *Russian-Uzbek dictionary*. (1955). Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
 28. Saidov, A. (2016). *Uzbek "Faust" of Erkin aka* (p. 51). Tashkent: Uzbekistan Publishing Press House.
 29. Salomov, G. (1983). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Teacher Publishing Press House.
 30. Sharipov, J. (1959). *Some issues of poetic translation* (p. 26). Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.

31. Sadikova, M. (1972). *Russian-Uzbek phraseological dictionary* (192 p.). Tashkent: Science Publishing.
32. High ideology and high translation skills. (1952). *Star of the East*, 2.
33. Tikhonov, A.N., Hatamov, N.T., Yemelyanova, S.A. (1979). *Russian-Uzbek thematic dictionary*. Tashkent: Teacher Publishing Press House.
34. Vinogradov, V.V. (1975). Lexical questions of interpretation of divine prose. *Dis. abs. doc. phil. sci.* (66 p.).
35. Zaripova, R. (2021). *The art of translation and the skill of a translator* (132 p.). Tashkent: 'The Wing of Contemplation' Publishing.
36. <https://www.livelib.ru>